



**VOLEYBOL O'YINIDA TOP KIRITISHDA TANLOV-FARQLASH
REAKSIYASINING O'RNI**

Murodov Zufar Muzaffarovich

Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti O'zbekiston, Chirchiq shahri

Anotatsiya: Ushbu tezisda so'ngi yillarda voleybolning qay darajada o'sgani, va undagi asosiy jarayon; top kiritishning axmiyati texnikasi vaktikasi xaqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Sport o'yinlari, darslik ishlanmalar, texnika-taktika, to'p kiritish, psixologik xolatlar, o'yin davomida toliqish.

So`ngi yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning serqirrali tashabbusi va faol sayi-harakatlari tufayli yurtimizda barcha sohalar kabi jismoniy tarbiya va sport tizimini tubdan isloh qilish, yangicha yo`nalish doirasida rivojlantirish va yanada ommalashtirish bo`yicha qator farmon hamda qarorlar qabul qilishgan bo`lib, ularda ko`tarilgan muammolar, belgilangan konseptual vazifalar bosqichma-bosqich o`z yechimini topib bormoqda. Bu borada ayniqsa 2020-yil 24- yanvardagi "Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to`g`risida" gi PF-5922 sonli farmon, 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to`g`risida"gi PF-6099 sonli farmon va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagagi "2019-2023 yillar davomida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida"gi 118-tonli qaror kabi strategic kuchga ega dasturli hujjatlarda ko`tarilgan dolzarb masalalarni tizimli prinsipda amalga oshirilishi" hamma bop jismoniy tarbiya va ommaviy sport vositalari yordamida sog'lom turmush tarzini kundalik extiyojiga aylantirish, har bir sport turi bo`yicha iste`dod sport zahiralarini tayyorlash va o`zbek sporti salohiyatini olimp cho`qqilariga olib chiqishga qodir yuqori malakali mutaxasis kadrlar yetishtirish imkoniyatini yanada kuchaytirishi tabiridir. Shu bilan bir qatorda bugungi kunda o`zbek sportchilari bir qator yakka kurash sport turlari bo`yicha xalqaro arenalarda, shu jumlada olimpiada o`yinlarida yuksak natijalarga erishib, yurtimiz shuxratini jahon hamjamiyati oldida tarannum etib kelayotgan bo`lsa-afsuski jamoali sport o`yinlarida va xususan dunyoda eng ommalashgan sport turlaridan biri bo`lmish voleybolda bunday natijalar uzoq yillar davomida kuzatilmay kelyapti. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida voleybol bo`yicha yuqori malakali o`qituvchi-trenerlar tayyorlash borasida salmoqli ishlar boshlangan. Jumladan, Belarus davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining voleybol-basketbol kafedrasи o`qituvchi professorlari bilan hamkorlikda bir necha o`quv qo'llanmalari, darslik va metodik ishlanmalar chop etilgan, ilmiy malakalar nashrdan chiqarilmoqda. Takidlash lozimki, respublikamiz sport maktablarida, voleybol klublari va terma jamoalarda mehnat qilib kelayotgan mutaxasis trenerlar aynan hamkorlikda tayyorlangan o`quv adabiyotlari, xalqaro tajriba me`yoriy mezonlar va model ko`rsatkichlarga asoslangan dasturlar doirasida o`zlarining kasbiy – pedagogik bilimlari hamda amaliy malakalarini oshirishlari lozim. Albata har bir sohada



taraqqiyotni raqobat tufayli o`zgarishi, jadallahishi yoki kamchilik va muommolarini yuzaga kelishi tabiiy bo`lganidek, sport turlarida ham va xususan voleybol dunyosida ham o`ziga xos bir yoki bir necha, xal etilishi zarur bo`lgan muommo mavjuddir. Bulardan jahonning shu yo`nalishiga mansub mutaxasis-trenerlari, tadqiqotchi - olimlarining diqqat markazida bo`lgan, xatto yetakchi voleybol ustalari o`rtasida dolzarb masalaga aylangan to`p kiritish taktikasi, to`p kiritish aniqligi va to`p kiritish natijadorligidir.

Gap shundaki, zamonaviy voleybolda to`p kiritishi-bu faqatgina boshlanadigon yoki uzilgan o`yinni davom ettirish vositasi bo`libgina qolmay, balki ochko olish va o`yinni g`alaba bilan yakunlashga imkon yaratuvchi samarali hujum usulidir. To`p kiritish aniqligi va uning natijadorligi voleybolchining birgina texnik-taktik mahoratga bog`liq emas, balki foydali to`p kiritish natijasi raqib o`yinchinlarining maydonda joylashishi tartibi, to`pni asosiy hujumchiga uzatuvchi o`yinchiga yoki shu hujumchiga to`pni yo`llash, maydonni chegaralovchi chiziqlari bo`ylab to`pni yo`llash varantlarini tahlil qilib, foydali qarorni tanlash va 8 sek. ichida shu qarorni ijro etish reaksiyasiga ham bog`liqdir. Shuni ham alohida ta`kidlash joizki, to`p kirituvchi o`yinchining texnik-taktik mahoratiga va qayd etilgan vaziyatli holatlarni qisqa muddat ichida samarali tahlil qilish, ularni farqlash va tanlov reaksiyasi asosida to`p kiritish harakatiga bir qator ichki va tashqi olimlar ham salbiy ta`sir ko`rsatadi. Masalan, to`p kirituvchining psixologik , tomoshabinlarning, "baqiruchaqirig`i" toliqish, o`yin davomida ijro etiladigan keskin va tezkor o`zgaruvchan harakatlar (sakrash, burilish va hakozo) ta`sirida yuzaga keladigan gipokis holat (organizmda O2 qarzdorligini yuzaga kelishi), ayniqsa chayqalish holati va uning oqibatida vujudga keluvchi muozanatni yo`qolishi yuqorida aytib o`tilgan vaziyatni tahlil, qulay vaqt va variantni farqlash- tanlash reaksiyalariga ham to`p kiritish koordinatsuyasiga ham salbiy taasir ko`rsatish va ularni bartaraf etish imkoniyatlari bir qator muaxasis hamda olimlar tomonidan o`rganilgan. [A.V.Belyaev, 2007; Yu.D.Jeleznyak, 2013; A.G.Furmanov, 2007; A.A.Pulatov, 2020; S.F.Ashurkova, 2020; V.Yu.Shnayder, 2008; A.Yu.Ligvenenno, 2007; Yu.B.Chesnokov, 2008; A.T.Garinov, Yu.Yu.Kleshev, E.V.Fomin, 2009].

Yuqorida qayt etilgan bibliografik ma`lumotlar, fikr – mulohazalar va tahliliy munozaralarga asosan e`tirof etish mumkinki, mazkur ish bugungi kunda o`rganilishi zarur bo`lgan o`ta dolzarb nazariy va amaliy ahamiyatga loyiqidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi PQ-3031-sonli Qarori, Xalq so`zi 2017 yil 4 iyun.
2. Ayrapetyants L. R., Pulatov A. A Isroilov Sh. X. Voleybol. Oliy o`quv yurtlari umumiy kurs talabalari uchun o`quv qo'llanma.T.2009, 77 b.
3. Belyaev A. V. Obuchenie texnike igri v voleybol ieyo sovershen-stvovanie metodicheskoe posobie. M.: Olimpiya. Chelovek, 2008, 54 b.
4. Belyaev A. V., Savin M. V. Voleybol.- M.: Fon. 2000, 368 b.
5. Bileeva L. V. Podvijnii igri; Ucheb posobie. M.; TVT Dvizion, 2005, 227 b.



6. Bileeva L. V., Qorotkov I .M., Klimkova R. V., Kuzmicheva E. V. Podvijnie igri prakticheskiy material uchebnoe posobie dlya studentov vuzov fizicheskoy kulturi.-M.:TBT Divizion, 2005, 280 b.